



# Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash

Distr.: General  
2019-yil 28-noyabr

Asl nusxa: Ingliz tilida

---

## Yevropa iqtisodiy komissiyasi

### 1975-yilgi XYT konvensiyasining Ma'muriy qo'mitasi

#### Yetmish ikkinchi sessiya

Jeneva, 2020-yil 6-fevral

5-band c) oldindan kun tartibi

#### Konvensiyani qayta ko'rib chiqish

Rasman qabul qilinmagan Konvensiyaga  
tuzatishlar bo'yicha ma'qullangan takliflar

## Konvensiyaning asosiy matniga tuzatishlar bo'yicha turli takliflar va 11-ilovani kiritish

### Kotibiyatning rasmiy xati

## I. Ma'lumot axboroti va mandat

1. Qo'mita o'zining yetmish birinchi sessiyasida (2019-yil oktabr oyi) XYT Konvensiyasi asosiy qismining ba'zi shartlariga tuzatishlar kiritish va 2020-yil fevral oyidagi sessiyada rasman qabul qilinguniga qadar tuzatishlar kiritilgan ECE/TRANS/WP.30/AC.2/2019/9/Rev.2 hujjatda mavjud bo'lgan yangi 11-ilovani kiritish to'g'risidagi taklifni qabul qildi. Milliy darajada qaror qabul qilish jarayonini yengillashtirish maqsadida Qo'mita sessiyada birgalikda ifodalangan va qabul qilingan, ifoda etilgan fikrlarni yakuniy matn sifatida taqdim etishga qaror qildi. Qo'mita kotibiyatdan sessiya ishi haqidagi yakuniy ma'ruzaga ilovada yakuniy matnni kiritish va 2020-yil fevral oyidagi sessiyada rasman qabul qilinishiga yordam berish uchun uni rasmiy hujjat sifatida nashr etilishini so'ragan (ECE/TRANS/WP.30/AC.2/145, 38-band).

2. Ilovada kotibiyat XYT Konvensiyasining asosiy matniga tuzatishlar bo'yicha qabul qilingan takliflarning yakuniy matnini hamda yangi 11-ilovani ifoda etadi, u, shuningdek, Qo'mitaning yetmish birinchi sessiyasi ishi haqidagi yakuniy ma'ruzaga ilovada ham saqlanadi (ECE/TRANS/WP.30/AC.2/145, I-ilova, ko'ring).

3. Qo'mitaga tuzatishlar bo'yicha ushbu takliflarni rasman qabul qilish taklif etiladi.

## Ilova

### 1. 1-modda, s) yangi band

1-moddaning r) bandidan *keyin* quyidagilar *kiritilsin*:

s) "eTIR tartibi" atamasi XYT kitobchasining funksional ekvivalenti bo'lib xizmat qiluvchi axborotlarning elektron almashinuvi orqali amalga oshiriluvchi XYT tartibini anglatadi. XYT Konvensiyasining shartlari qo'llanilayotgan xuddi shu vaqtda, eTIR tartibining xususiyatlari 11-ildovada keltiriladi.

### 2. 3-modda b)

Mavjud bo'lgan matn *quyidagi bilan almashtirilsin*:

b) yuk tashishlar 6-moddaning shartlariga binoan vakolatlar berilgan birlashmalar tomonidan kafolatlanadi. Ular mazkur Konvensiyaga 1-ildovada keltirilgan namunaga muvofiq keluvchi XYT kitobchasini qo'llash bilan amalga oshirilishi, yoki eTIR tartibi bilan muvofiqlikda bajarilishi kerak.

### 3. 43-modda, birinchi satr

"va 7-ildovaning III qismi" so'zlari "7-ildovaning III qismi va 11-ildovaning II qismi"ga *almashtirilsin*.

### 4. Yangi modda 58-kvater

58-kvater moddasidan *keyin* quyidagi *kiritilsin*:

58-kvater moddasi

Amalga oshirish bo'yicha Texnik organ

Amalga oshirish bo'yicha Texnik organ tashkil etiladi. Uning tarkibi, funksiyalari va tartib-qoidalari 11-ildovada ta'riflangan.

### 5. 59-modda, 2-band, birinchi satr

"Har qanday" so'zi "Har qanday, 60-bis moddada ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno"ga *almashtirilsin*.

### 6. 59-modda, 3-band, birinchi satr

"60-moddada" so'zlari "60- va 60-bis moddalarida"ga *almashtirilsin*.

### 7. Yangi 60-bis moddasi

60-moddadan *keyin* quyidagi *kiritilsin*:

60-bis moddasi

11-ildova va unga tuzatishlarning kuchga kirishining maxsus tartibi

1. 59-moddaning 1- va 2-bandlariga muvofiq ko'rib chiqiluvchi 11-ildova Ahdlashuvchi tomonlarni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tomonidan xabardor qilingan sanadan boshlab o'n ikki oylik muddat o'tgach, uch oydan keyin barcha Ahdlashuvchi tomonlar uchun kuchga kiradi,

11-ilovani qabul qilmasliklari haqida yuqorida eslatilgan davr davomida yozma ravishda Bosh kotibni xabardor qilgan Ahdlashuvchi tomonlar bundan mustasno. 11-ilova, o'zlarining qabul qilmaslik haqidagi xabarnomasini chaqirib oluvchi Ahdlashuvchi tomonlar uchun bunday xabarnomani chaqirib olish haqidagi xabarni depozitariy tomonidan qabul qilingan sanadan keyin olti oy o'tgach, kuchga kiradi.

2. 11-ilovaga har qanday taklif qilingan tuzatish Ma'muriy qo'mita tomonidan ko'rib chiqiladi. Bunday tuzatishlar 11-ilova bilan bog'liq bo'lgan Ahdlashuvchi tomonlarning ko'pchilik qatnashuvchi va ovoz berishda ishtirok etuvchilari tomonidan tasdiqlanadi.

3. Mazkur moddaning 2-bandi bilan muvofiqlikda ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan 11-ilovaga tuzatishlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi tomonidan barcha Ahdlashuvchi tomonlarga ma'lumot uchun yoki 11-ilova bilan bog'liq bo'lgan Ahdlashuvchi tomonlar holatida qabul qilish uchun yuboriladi.

4. Bunday tuzatishlarning kuchga kirish sanasi 11-ilova bilan bog'liq bo'lgan Ahdlashuvchi tomonlarning ko'pchilik qatnashuvchi va ovoz berishda qatnashuvchilari tomonidan ularning tasdiqlanish davriga belgilanadi.

5. 11-ilova bilan bog'liq bo'lgan tuzatishlar, agarda tasdiqlanish paytiga o'rnatilgan sanadan ancha erta sanagacha Ahdlashuvchi tomonlar bo'lib hisoblanuvchi mamlakatlarning beshdan biri yoki beshtasi, qay biri kamroq bo'lishiga bog'liq holda, tuzatishlarga qarshilikni ifoda etganliklari haqida Bosh kotibni xabardor etmasalar, mazkur moddaning 4-bandi bilan muvofiqlikda kuchga kiradi.

6. Ahdlashuvchi tomonlar uchun 11-ilova bilan bog'liq bo'lgan mazkur moddaning 2–5-bandlarida tavsiflangan tartiblar bilan muvofiqlikda qabul qilingan har qanday tuzatishning kuchga kirish vaqti ushbu tuzatish tegishli bo'lgan oldingi barcha shartlarni almashtiradi va bekor qiladi.

## **8. 61-modda, to'rtinchi satr**

"va 60" so'zlari "60 va 60-bis"ga almashtirilsin.

## **9. 9-ilova, I-qism, 3-band xi) yangi bandosti**

3-bandning x) bandostidan *keyin* quyidagilar *kiritilsin*:

xi) vakolatli organlarning so'rovi bo'yicha, 11-ilova 10-modda 2-bandida tavsiflangan zaxira tartibi holatida, 11-ilova bilan bog'liq bo'lgan Ahdlashuvchi tomonlar uchun kafolat haqiqiylikini va XYT tashish eTIR tartibi bilan muvofiqlikda amalga oshirilayotganligini va XYT tashishga aloqador bo'lgan boshqa ma'lumot taqdim etilishini tasdiqlash.

## 10. 11-ilova

10-ilovadan *keyin* quyidagi *kiritilsin*:

### 11-ilova

#### eTIR tartibi

##### I-qism

##### 1-modda

##### Qo'llanilish sohasi

1. Mazkur ilovaning shartlari eTIR tartibini amalga oshirishni tartibga soladi, uning ta'rifi Konvensiyaning 1-moddasi s) bandida aks ettirilgan va mazkur ilova bilan bog'liq bo'lgan Ahdlashuvchi tomonlar orasidagi munosabatlarda bu 60-bis moddaning 1-bandida qanday nazarda tutilgan bo'lsa, shunday qo'llaniladi.

2. eTIR tartibi 11-ilova bilan bog'liq bo'lmagan va yagona bojxona hududiga ega bo'lgan bojxona yoki iqtisodiy ittifoqning a'zo mamlakati hisoblangan Ahdlashuvchi tomonlar hududida qisman amalga oshiriluvchi tashishlar uchun qo'llanilishi mumkin emas.

##### 2-modda

##### Ta'riflar

Mazkur ilovaning maqsadlari uchun:

a) "eTIR xalqaro tizimi" atamasi eTIR tartibida ishtirok etuvchi tomonlar o'rtasida elektron axborotlar almashish uchun ishlab chiqilgan axborot-kommunikatsion texnologik (AKT) tizimni anglatadi.

b) "eTIR spetsifikatsiyasi" atamasi mazkur ilovaning 5-moddasi shartlari bilan muvofiqlikda qabul qilingan va o'zgartirilgan eTIR tartibining konseptual, funksional va texnik spetsifikatsiyalarini anglatadi.

c) "XYTning dastlabki ma'lumotlari" atamasi XYT kitobchasini saqlovchisini eTIR tartibi ostiga yuklarni joylashtirish niyatida eTIR spetsifikatsiyalari bilan muvofiqlikda jo'natuvchi mamlakatning vakolatli organlariga taqdim etilgan ma'lumotlarni anglatadi.

d) "o'zgartirishlar haqidagi dastlabki ma'lumotlar" atamasi deklaratsiya ma'lumotlarini XYT kitobchasi saqlovchisi o'zgartirish niyatida eTIR spetsifikatsiyasi bilan muvofiqlikda deklaratsiya ma'lumotlarini o'zgartirishlari so'ralayotgan mamlakatning vakolatli organlariga taqdim etilgan ma'lumotlarni anglatadi.

e) "deklaratsiya ma'lumotlari" atamasi XYTning dastlabki ma'lumotlari va vakolatli organlar tomonidan qabul qilingan o'zgarishlar haqidagi dastlabki ma'lumotlarni anglatadi.

f) "deklaratsiya" atamasi dalolatnomani anglatadi, u orqali XYT kitobchasi saqlovchisi yoki uning vakili eTIR spetsifikatsiyalari bilan muvofiqlikda o'zining eTIR tartibi ostiga yuklarni joylashtirish niyati haqida xabardor qiluvchi dalolatnomani anglatadi. Vakolatli organlar tomonidan deklaratsiyani qabul qilish paytidan – XYTning dastlabki ma'lumotlari yoki o'zgartirishlar haqidagi dastlabki ma'lumotlar – va deklaratsiya ma'lumotlarini eTIR xalqaro tizimiga uzatilishi asosida u o'zi bilan qabul qilingan XYT kitobchasining yuridik ekvivalentini taqdim etadi.

g) "ilova qilingan hujjat" atamasi eTIRning texnik spetsifikatsiyalariga ega bo'lgan rahbariy prinsipi bilan muvofiqlikda deklaratsiya qabul qilinishidan keyin elektron ko'rinishdagi bojxona tizimi tomonidan yaratilgan bosma hujjatni anglatadi.

Ilova qilingan hujjat yo'nalish bo'ylab olib borish bo'yicha mojarolarni ro'yxatga olish uchun qo'llanilishi mumkin va mazkur Konvensiyaning 25-moddasi bilan muvofiqlikda hamda zaxira tartibi maqsadlari uchun bayonnomaning o'rnini bosadi.

h) "autentifikatsiya" atamasi jismoniy yoki yuridik shaxslarning elektron identifikatsiyasini yoki tasdiqlanishi kerak bo'lgan elektron shakldagi ma'lumotlarning kelib chiqishini va butunligini ta'minlovchi elektron jarayonni anglatadi.

### 3-modda

#### eTIR tartibini amalga oshirish

1. 11-ilova bilan bog'liq bo'lgan Ahdlashuvchi tomonlar eTIR spetsifikatsiyalari bilan muvofiqlikda eTIR xalqaro tizimiga o'zlarining bojxona tizimlarini ulaydilar.
2. Har bir Ahdlashuvchi tomon o'zi uchun eTIR xalqaro tizimiga o'zlarining bojxona tizimlarini ulaydigan sanani o'rnatish imkoniyatiga egadir. Ulanish sanasi 11-ilova bilan bog'liq bo'lgan barcha boshqa Ahdlashuvchi tomonlarga, ulanishning haqiqiy sanasigacha kamida olti oy oldin xabar qilinadi.

### 4-modda

#### Amalga oshirish bo'yicha Texnik organning tarkibi, funksiyalari va tartib-qoidalari

1. Amalga oshirish bo'yicha Texnik organ a'zolari 11-ilova bilan bog'liq bo'lgan Ahdlashuvchi tomonlar hisoblanadi. Uning sessiyalari muntazam asosda yoki Ma'muriy qo'mitaning iltimosi bo'yicha eTIR spetsifikatsiyalariga rioya qilinishini ta'minlashdagi ehtiyojlarga bog'liq holda chaqiriladi. Ma'muriy qo'mitaga amalga oshirish bo'yicha Texnik organning faoliyati va mulohazalari haqidagi ma'lumot muntazam taqdim etiladi.
2. 60-bis moddaning 1-bandida ko'zda tutilganidek, 11-ilovani qabul qilmagan Ahdlashuvchi tomonlar va xalqaro tashkilotlarning vakillari kuzatuvchilar sifatida amalga oshirish bo'yicha Texnik organning sessiyalarida ishtirok etishlari mumkin.
3. Amalga oshirish bo'yicha Texnik organ eTIR tartibi amalga oshirilishining texnik va funksional tomonlari monitoringi bilan shug'ullanadi hamda uning vakolatlariga kiruvchi masalalar bo'yicha ma'lumotlar almashuvini muvofiqlashtiradi hamda uning rivojlanishiga ko'maklashadi.
4. Amalga oshirish bo'yicha Texnik organ birinchi sessiyasida o'zining tartib-qoidalarini tasdiqlaydi va ularni 11-ilovaning shartlari bilan bog'liq bo'lgan Ahdlashuvchi tomonlar bilan ma'qullash uchun Ma'muriy qo'mitaga taqdim etadi.

### 5-modda

#### eTIR spetsifikatsiyalarini qabul qilish va ularni o'zgartirish tartibi

Amalga oshirish bo'yicha Texnik organ:

a) eTIR tartibining funksional spetsifikatsiyalari va ularga o'zgartirishlarning eTIR tartibining funksional spetsifikatsiyalariga muvofiqligini ta'minlash uchun ularni va ularga kiritiluvchi tuzatishlarni qabul qiladi. Ularni qabul qilish paytida u amalga oshirish uchun muvofiq o'tish davri haqidagi qarorni qabul qiladi;

b) eTIR tartibini funksional spetsifikatsiyalarining eTIR tartibining konseptual spetsifikatsiyalariga muvofiqligini ta'minlash uchun ularni va ularga kiritilayotgan tuzatishlarni tayyorlaydi. Ular 11-ilova bilan bog'liq bo'lgan ko'pchilik ishtirok etuvchi va ovoz berishda qatnashuvchi Ahdlashuvchi tomonlar bilan qabul qilinishi uchun Ma'muriy qo'mitaga yuboriladi hamda qabul qilish vaqtida aniqlashtiriladigan sanagacha holat bo'yicha tatbiq qilinadi va zarurat tug'ilgan holatda texnik spetsifikatsiyaga aylantiriladi;

c) Ma'muriy qo'mitaning topshirig'i bo'yicha eTIR tartibini konseptual spetsifikatsiyalariga tuzatishlarni ko'rib chiqadi. eTIR tartibini konseptual spetsifikatsiyalari va unga kiritiluvchi tuzatishlar 11-ilovaga bog'liq bo'lgan ko'pchilik ishtirok etuvchi va ovoz berishda qatnashuvchi Ahdlashuvchi tomonlar bilan qabul qilinadi hamda qabul qilish vaqtida aniqlashtiriladigan sanagacha holat bo'yicha tatbiq qilinadi va zarurat tug'ilgan holatda funksional spetsifikatsiyaga aylantiriladi.

#### 6-modda

##### XYTning dastlabki ma'lumotlari va o'zgartirishlarga oid dastlabki ma'lumotlarni taqdim etish

1. XYTning dastlabki ma'lumotlari va o'zgartirishlarga oid dastlabki ma'lumotlar XYT kitobchasi saqlovchisi yoki uning vakili tomonidan jo'natish so'ralayotgan mamlakat va deklaratsiya ma'lumotlarini o'zgartirishlari qilingan mamlakatning vakolatli organlariga yuboriladi. Qabul qilingandan keyin – milliy qonunchilik bilan muvofiqlikda – deklaratsiyalarni yoki o'zgartirishlarni vakolatli organlar deklaratsiya ma'lumotlarini yoki ularga kiritilgan o'zgartirishlarni eTIR xalqaro tizimiga yuboradi.
2. XYT dastlabki ma'lumotlari va 1-bandda ko'rsatilgan o'zgartirishlar haqidagi dastlabki ma'lumotlar bevosita vakolatli organlarga yoki eTIR xalqaro tizimi orqali yuborilishi mumkin.
3. Ahdlashuvchi tomonlar 11-ilovaga bog'liq eTIR xalqaro tizimi orqali XYTning dastlabki ma'lumotlarini va o'zgartirishlar haqidagi dastlabki ma'lumotlarni taqdim etilishini tan oladi.
4. Vakolatli organlar barcha elektron vositalarning ro'yxatini e'lon qiladi, ular yordamida XYTning dastlabki ma'lumotlari va o'zgartirishlar haqidagi dastlabki ma'lumotlar taqdim etilishi mumkin.

#### 7-modda

##### Saqlovchining autentifikatsiyasi

1. Deklaratsiyaning jo'natish mamlakatida qabul qilinishida yoki yo'nalish bo'ylab borish bo'yicha har qanday mamlakatda deklaratsiyaning ma'lumotlariga o'zgartirishlar kiritilishida vakolatli organlar milliy qonunchilik bilan muvofiqlikda XYTning dastlabki ma'lumotlarini yoki o'zgartirishlar haqidagi dastlabki ma'lumotlarni va XYT kitobchasi saqlovchisining autentifikatsiyasini o'tkazadi.
2. 11-ilova bilan bog'liq bo'lgan Ahdlashuvchi tomonlar eTIR xalqaro tizimi tomonidan amalga oshiriluvchi XYT kitobchasining saqlovchisi autentifikatsiyasini tan oladi.
3. Vakolatli organlar autentifikatsiya mexanizmlari ro'yxatini e'lon qiladi, ular – mazkur moddaning 2-bandida ko'rsatilganlardan tashqari – autentifikatsiya uchun qo'llanilishi mumkin.
4. 11-ilova bilan bog'liq bo'lgan Ahdlashuvchi tomonlar jo'natish mamlakatining va deklaratsiya ma'lumotlari o'zgartirishlari so'ralayotgan mamlakatning vakolatli organlaridan qabul qilingan deklaratsiya ma'lumotlarini qabul qilingan XYT kitobchasining yuridik ekvivalenti sifatida tan oladi.

#### 8-modda

##### Saqlovchi autentifikatsiyasining o'zaro tan olinishi

Deklaratsiyani va deklaratsiyaning ma'lumotlariga kiritilgan o'zgarishlarni qabul qilayotgan, 11-ilova bilan bog'liq bo'lgan Ahdlashuvchi tomonlarning vakolatli organlari tomonidan bajarilgan saqlovchi autentifikatsiyasi o'zlarining XYT tashishlari jarayonida, 11-ilova bilan bog'liq bo'lgan barcha keyingi Ahdlashuvchi tomonlarning vakolatli organlari tomonidan tan olinadi.

9-moddaQo'shimcha ma'lumotlarga ehtiyojlar

1. Funksional va texnik spetsifikatsiyalarda ko'rsatilgan ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda, vakolatli organlar milliy qonunchilik bilan nazarda tutilgan qo'shimcha ma'lumotlarning taqdim etilishini talab qilishi mumkin.
2. Vakolatli organlarga funksional va texnik spetsifikatsiyalarda ko'rsatilgan faqat o'sha talab etiluvchi ma'lumotlar bilan imkoni boricha chegaralash va mazkur ilova bilan muvofiqlikda amalga oshiriluvchi XYT tashishlari uchun to'siqlarni yaratmaslik maqsadida qo'shimcha ma'lumotlarning taqdim etilishini yengillashtirish uchun choralari qo'llash kerak.

10-moddaZaxira tartibi

1. Agar eTIR tartibini jo'natish joyining bo'xonasida texnik sabablar bo'yicha boshlash mumkin bo'lmagan holatdagina, XYT kitobchasini saqlovchisi XYT tartibiga qaytishi mumkin.
2. Agar eTIR tartibi boshlanmagan, ammo uning davom ettirilishi texnik sabablar bo'yicha qiyinlashtirilgan holatdagina, vakolatli organlar muqobil elektron tizimlardan qo'shimcha ma'lumotning mavjudligida, eTIR spetsifikatsiyalarida ko'rsatilgan tartib bilan muvofiqlikda, bu funksional va texnik spetsifikatsiyalarda ko'zda tutilganidek, ilova qilinuvchi hujjatlarni qabul qiladi va ularga ishlov beradi.
3. Ahdlashuvchi tomonlarning vakolatli organlari milliy kafolat birlashmalaridan kafolat haqiqiylikini va XYT tashilishi eTIR tartibi bilan muvofiqlikda amalga oshirilayotganligini hamda XYT tashishga nisbatan mavjud bo'lgan boshqa ma'lumotlarni taqdim etishni talab qilish huquqiga ega.
4. 3-bandda tavsiflangan tartib 9-ilovaning I-qismi 1 d) bandida ko'zda tutilganidek, vakolatli organlar va milliy kafolat birlashmalari o'rtasidagi bitimda o'rnatiladi.

11-moddaeTIR xalqaro tizim xostingi

1. eTIR xalqaro tizim xostingi va uning ma'muriy boshqaruvi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (YEIK) rahbarligi ostida ta'minlanadi.
2. YEIK mamlakatlariga eTIR xalqaro tizimiga ularning bo'xona tizimlarini ulashda, jumladan shoshilinch ulashdan avval ularning o'rnatilgan ravishda faoliyat yuritishini ta'minlash uchun muvofiqlikni tekshiruvdan o'tkazishda yordam ko'rsatadi.
3. YEIK mazkur moddaning 1- va 2-bandlarida ko'zda tutilgan majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan resurslarni taqdim etadi. Agar eTIR xalqaro tizimi Birlashgan Millatlar Tashkilotining muntazam budjet mablag'laridan moliyalashtirilmayotgan bo'lsa, unda resurslardagi ehtiyojlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining budjetdan tashqari mablag'lari va loyihalari uchun moliyaviy qoidalariga muvofiq qoplanadi. Ma'muriy qo'mita YEIKda eTIR xalqaro tizimi faoliyat yuritishini ta'minlash uchun moliyalashtirish mexanizmini o'rnatadi va tasdiqlaydi.

12-moddaeTIR xalqaro tizimining ma'muriy boshqaruvi

1. YEIK kamida 10 yil davomida eTIR xalqaro tizimida ma'lumotlarni saqlash va arxivlashtirish uchun o'rnatilgan tarzdagi choralarni amalga oshiradi.

2. eTIR xalqaro tizimida saqlanuvchi barcha ma'lumotlar, agregirlangan statistik ma'lumotlarni olish maqsadlarida mazkur Konvensiyaning vakolatli organlari nomidan YEIKni qo'llashlari mumkin.

3. Bevosita mas'ul shaxs yoki bevosita javobgar shaxslar yoki milliy kafolat birlashmasining to'lov majburiyatlari bilan bog'liq holda ma'muriy yoki sud tergovi predmeti bo'lib qoluvchi eTIR tartibiga muvofiqlikda hududlari bo'yicha tashishlar amalga oshiriluvchi Ahdlashuvchi tomonlarning vakolatli organlari eTIR xalqaro tizimida saqlanuvchi va tekshirish maqsadlari uchun to'lov haqidagi talabning tortishuv predmeti hisoblanganiga nisbatan aloqador bo'lgan ma'lumotlarni olish haqidagi so'rov bilan YEIKga murojaat qilishlari mumkin. Ushbu ma'lumot milliy ma'muriy yoki sud tergovlarida dalil sifatida qo'llanilishi mumkin.

4. Mazkur moddada ko'rsatilgan holatlarga taalluqli bo'lmagan holatlarda, eTIR xalqaro tizimida saqlanuvchi ma'lumotning vakolatlanmagan shaxslar yoki tashkilotlar tomonidan tarqatilishi yoki uning oshkor etilishi taqiqlanadi.

### 13-modda

#### eTIR tashishlariga ishlov berishi mumkin bo'lgan bojxonalar ro'yxatini e'lon qilish

Vakolatli organlar XYT Ijro kengashi tomonidan yaratilgan va yuritiluvchi vakolatlangan bojxonalar haqidagi ma'lumotlarning elektron bazasiga kiritilgan eTIR tartibi bilan muvofiqlikda XYT operatsiyalarini bajarishga ruxsat berilgan jo'natish joyi bojxonalar, oraliq bojxonalar va belgilangan joy bojxonalarining ro'yxatini muntazam tekshiruvini va yangilanishini ta'minlaydi.

### 14-modda

#### XYT Konvensiyasining 10-ilovasiga muvofiq ma'lumotlarni taqdim etishga nisbatan huquqiy talablar

Mazkur Konvensiyaga 10-ilovaning 1, 3 va 4-bandlarida tavsiflangan ma'lumotlarni taqdim etilishiga nisbatan huquqiy talablar eTIR tartibini amalga oshirish shartida bajarilgan hisoblanadi.

## II qism

### 11-ilovaning 2 h) moddasiga tushuntirish xati

11.2 h)-1 Toki eTIR spetsifikatsiyalarida tavsiflangan kelishilgan yondashuv o'rnatilmagunga qadar, 11-ilova bilan bog'liq bo'lgan Ahdlashuvchi tomonlar o'zlarining milliy qonunchiligida ko'zda tutilgan har qanday jarayon, jumladan foydalanuvchi nomi/parol yoki elektron imzolar yordamida XYT kitobchasi saqlovchisini autentifikatsiya qilishi mumkin.

11.2. h)-2 eTIR xalqaro tizimi va vakolatli organlar almashinuvchi ma'lumotlarning butunligi hamda axborot-kommunikatsion texnologik tizimlarning (AKT) autentifikatsiyasi, eTIRning texnik spetsifikatsiyalarida belgilab berilgani kabi, xavfsiz ulanishlar orqali amalga oshiriladi.

### 11-ilovaning 3-moddasi 2-bandiga tushuntirish xati

11.3.2 11-ilova bilan bog'liq bo'lgan Ahdlashuvchi tomonlarga o'zlarining milliy bojxona tizimlarini yangilash, 11-ilova ular uchun kuchga kirishi bilanoq, eTIR xalqaro tizimi bilan uning aloqasini ta'minlashlari tavsiya etiladi. Bojxona yoki iqtisodiy ittifoqlar ancha kech sanani belgilashi mumkin, bu ularga eTIR xalqaro tizimiga o'zlarining barcha a'zo-davlatlarining milliy bojxona tizimlarini ulashga vaqt beradi.



11-ilovaning 6-moddasi 3-bandiga tushuntirish xati

- 11.6.3 11-ilova bilan bog‘liq bo‘lgan Ahdlashuvchi tomonlarga funksional va texnik spetsifikatsiyalarda ko‘rsatilgan usullar yordamida XYT dastlabki ma‘lumotlari va o‘zgartirishlar haqidagi dastlabki ma‘lumotlarning taqdim etilishi imkoniyatini, bu qanchalik bajarilish ehtimoli bilan, tan olishlari tavsiya etiladi.

11-ilovaning 7-moddasi 2-bandiga tushuntirish xati

- 11.7.2 eTIR spetsifikatsiyalarida tavsiflangan vositalar yordamida, eTIR xalqaro tizimi XYT dastlabki ma‘lumotlari yoki o‘zgartirishlar haqidagi dastlabki ma‘lumotlar butunligini va ma‘lumotlar XYT kitobchasi saqlovchisi tomonidan yuborilganligini ta‘minlaydi.

11-ilovaning 7-moddasi 4-bandiga tushuntirish xati

- 11.7.4 eTIR spetsifikatsiyalarida tavsiflangan vositalar yordamida, eTIR xalqaro tizimi deklaratsiya ma‘lumotlari butunligini va ma‘lumotlar tashishda qatnashuvchi mamlakatlarning vakolatli organlari tomonidan yuborilganligini ta‘minlaydi.

11-ilovaning 8-moddasiga tushuntirish xati

- 11.8 eTIR spetsifikatsiyalarida tavsiflangan vositalar yordamida, eTIR xalqaro tizimi vakolatli organlardan qabul qilingan va vakolatli organlarga uzatilgan deklaratsiyalar ma‘lumotlarini, jumladan deklaratsiyani qabul qilayotgan vakolatli organlar tomonidan autentifikatsiya qilingan XYT kitobchasi saqlovchisiga havola butunligini ta‘minlaydi.

11-ilovaning 11-moddasi 3-bandiga tushuntirish xati

- 11.11.3 Zarurat tug‘ilganida Ahdlashuvchi tomonlar XYT tashilishi uchun yig‘imlar asosida eTIR xalqaro tizimidan foydalanishga xarajatlarni moliyalashtirishga nisbatan qaror qabul qilishi mumkin. Bunday holatlarda, Ahdlashuvchi tomonlar moliyalashtirishning muqobil mexanizmlarini tatbiq qilish uchun zarur bo‘lgan muvofiq vaqtga nisbatan va ularni qo‘llash shartlari haqidagi qarorni qabul qiladi. Talab etiluvchi budjet YEIK tomonidan tuziladi, amalga oshirish Texnik organi tomonidan ko‘rib chiqiladi va Ma‘muriy qo‘mita tomonidan tasdiqlanadi.